

Ona tili

IV qism

4



D.D.Baynazarova
M.E.Toirova

Ona tili

4-sinf


IV qism

Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik

Ta'limni rivojlantirish markazi huzuridagi ilmiy-metodik
kengash tomonidan tavsiya etilgan.



Toshkent – 2023





**Bilimingizni mustahkamlang.
Savollarga og'zaki javob bering.**

- Son so'z turkumi deb nimaga aytiladi?
- Son qanday so'roqlarga javob bo'ladi?
- Son qaysi so'z turkumiga bog'lanib keladi?
- Son necha xil bo'ladi?



**Son so'z turkumi haqidagi bilimingizni
mustahkamlang. Testlarni yechib, to'g'ri
javobni ko'chiring.**

1. Qaysi javobda tartib son berilgan?

- A. Singlim 2-sinfni tamomlaydi.
- B. Bu o'yinda 8 nafar ishtirokchi qatnashgan.
- D. XXI asr – mo'jizalar asri.
- E. Tovuq – yetti xazinaning biri.

**2. Qaysi javobdagi maqolda nuqtalar
o'rniga “yetti” so'zi qo'yiladi?**

- A. Bir yigitga ... hunar oz.
- B. ... marta eshitgandan bir marta ko'rgan yaxshi.
- D. Oyning ... qorong'i bo'lsa, ... yorug'.
- E. ... o'lchab, bir kes.

3. Qaysi javobda tartib son to'g'ri yozilgan?

- A. 2024 yil B. IV-sinf D. 9-may E. XXI-asr

4. Ertaklarda qaysi sonlar ko'p qo'llaniladi?

- A. uch, yetti, qirq D. uch, besh, yetti, qirq
 B. uch, yetti, qirq, yuz E. uch, yetti, qirq, to'qqiz

5. Qaysi javobda nuqtaiar o'rniga tartib son qo'yiladi?

- A. Sinfimizning burchagida ... kitob javoni bor.
 B. Sinfimizda ... parta, ... stol va ... stul bor.
 D. Biz ... sinfda o'qiyamiz.
 E. Har bir partada ... bola o'tiradi.

1-mashq.



“Kim topqir?” o'yini. Guruhlarga bo'linib, son so'z turkumi qatnashgan topishmoqlardan “Kim ko'p aytish” topshirig'ini bajaring.

Topishmoqlar	Javobi
<i>Bitta dara, ikkita tog', Ichidagi sariyog'.</i>	
<i>O'zi bitta, qulog'i to'rtta.</i>	
<i>Yetmish otning kuchi bor, Oyog'ida tishi bor.</i>	
<i>Ikki yaproq bir tanda, Kezar yozda chamanda.</i>	

2-mashq.



Uzoq umr ko'rish muhimmi yoki mazmunli yashashmi?

Sizningcha, insonning o'rtacha umr ko'rish qachon yuqori darajada bo'lgan?



Tadqiqotlarga qaraganda, Qadimgi Yunonistonda odamlarning o'rtacha yoshi – 29, Yevropada XVI asrda – 21, XVII asrda – 26, XVIII asrda – 34, XX asr boshida – 50, XX asr o'rtasida – 70, XX asr so'ngida esa 60 yoshni tashkil etgan. Uzoq umr ko'rish yaxshi. Ammo mazmunli umr kechirish undan ham yaxshi.

("Mening birinchi ensiklopediyam". – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2019.)



Sizningcha, inson mazmunli umr kechirishi uchun qanday fazilatlar va fe'l-atvorga ega bo'lishi kerak, deb hisoblaysiz?



Qiziqarli ma'lumotlarni o'qing. Matndagi sonlarni harfiy ifodaga aylantirib yozing.

3-mashq.



She'rni husnixat bilan ko'chiring.
Son qatnashgan misralarni aniqlang.

Top, o'rtoq

Ibrohim Donish

Kuzda yong'oq pishadi,
"To'p-to'p" etib tushadi.

Bo'lishib uch-to'rt o'rtoq,
Biz o'ynaymiz "juftmi-toq".

Bir qo'limda besh yong'oq,
Bir qo'limda uch yong'oq.

Yana bor cho'ntakda ham
Qo'ldagidan bitta kam.

Qani, o'ylab top, o'rtoq,
Hammasi qancha yong'oq?

Ular juftmi yoki toq?



4-mashq.



Berilgan ma'lumotlarga internetdan va ensiklopediyadan qo'shimcha tarzda 2 ta ma'lumot topib, husnixat asosida ko'chiring.

Yirik yirtqichlar orasida yuragining hajmi eng kichik hayvon sherdir.



Bulbullar 2 ming xil ohangda sayrar ekan.



Eng kichkina kuchuk Meksikada yashaydi.
Uning bo'yi 15 santimetr keladi.



5-mashq.



Maqollarni o'qing. Kishilik olmoshlarini aniqlab, tagiga chizing. Kishilik olmoshlari qatnashgan yana qanday maqollarni bilasiz?

Xalq meniki dema, sen – xalqniki.

Vataning tinch – sen tinch.

Elda bori – senda bori.

Qo'shning tinch – sen tinch.



“Vataning tinch – sen tinch” maqolini izohlang. Sizningcha, Vatan tinchligi qanchalik muhim?



Men, sen, u, biz, siz, ular – kishilik olmoshlaridir. Kishilik olmoshlari Kim? Kimlar? so'roqlariga javob bo'ladi. Kim? – **Men, sen, u.** Kimlar? – **Ular.**

6-mashq.



Tengdosh so'ziga sinkveyn tuzing.

1	Kim?	<i>Tengdosh</i>
2	Qanday?	
3	Nima qiladi?	
4	Gap	
5	Ma'nodosh so'z	



Tengdosh so'zi ishtirokida kishilik olmoshlaridan mosini qo'llab, gaplar tuzing.

O'zingiz havas qiladigan tengdoshlaringiz bormi? Aksincha, yomon xulqli tengdoshlaringizga nimalarni maslahat berar edingiz? Fikringizni bayon eting.

7-mashq.



Do'st so'ziga ta'rif bering.

Kishilik olmoshlarini qatnashtirib, do'stingizning xususiyatlarini yozing.

Vafodor	Do'st	



8-mashq.



O'qing. Husnixat bilan ko'chiring.
Kishilik olmoshlarini aniqlab, tagiga chizing.

1. Biz bugun bobomiz Alisher Navoiy nomisiz o'zbek madaniyatini tasavvur qilolmaymiz. *(Erkin Vohidov)*
2. Siz o'zbek tilining benihoya boy, go'zal, nazokatli til ekanini bilishingiz kerak. *(Erkin Vohidov)*
3. Men hayotdan juda ko'p narsalarni o'rgandim. *(To'lqin)*

9-mashq.



O'qing. Nuqtalar o'rniga kishilik olmoshlarini qo'yib, gaplarni ko'chiring.

1. Yaxshilik tilayman odamga,
U ... tanitgan olamga.
Parvarish, xizmatin oqlay deb,
Imlayman huzurbaxsh soyamga. *(E. Majidov)*
2. Ana shu qishloqda Shoir, Mohir
va O'roq ismli tengqur bolalar yashar
ekanlar. ... faqat tengqurgina emas,
oralaridan qil ham o'tmaydigan qalin do'st
ekanlar. *(Oqiljon Husanov)*
3. Besh nafar o'g'il-qizlarim bor. ... oltinchisi
bo'lasan. *(Parda Tursun)*

10-mashq.



She'rni yoddan yozing.
Kishilik olmoshlariga so'roq bering.

*O'lkamni yashartmoq,
Bizga iftixor.
Uzoq ketma, quyosh,
Sen borsan, men bor.*
(Obid Rasul)

Kishilik olmoshlari: men, sen, u, biz, siz, ular.

11-mashq.



O'qing. Nuqtalar o'rniga kishilik olmoshlaridan mosini qo'yib, matnni ko'chiring. Matnga mos sarlavha toping.

... oilamiz kichik va ahil. Oilamizda dadam, onam, men va ukam yashaymiz. Dadam va onam shifokor bo'lib ishlaydi. ... bemorlarni davolaydi.

Ukam suzishni yaxshi biladi. ... turli musobaqalar g'olibi. ... ustozlarimiz doim maqtashadi. ... oilamiz bilan faxrlanaman.



Oilangizdagi siz faxrlanadigan insonlaringiz haqida yozing.

12-mashq.



Nuqtalar o'rniga kishilik olmoshlaridan mosini qo'yib, matnni ko'chiring.

1. ... o'z odobing, g'amxo'rliging bilan odamlar ko'ngliga yo'l topa olishing kerak.
2. ... doim olg'a intil, shunda g'oliblik nasib qiladi.
3. Bugun ... va oyim bilan hayvonot bog'iga bordik.
4. ... kecha maktabda musobaqa uyushtirdik.



Kishilik olmoshlari narsa, belgi va miqdor ma'nolarini to'g'ridan to'g'ri ifodalamay, balki narsa, belgi va miqdor tushunchalari bilan bog'langan holda keladi. Kishilik olmoshlari uch shaxsdan biriga ishora qiladi. So'zlovchi birinchi shaxs, tinglovchi ikkinchi shaxs, nutqdan tashqari barcha: shaxs, narsa, voqea-hodisalar o'zga, ya'ni uchinchi shaxs sifatida keladi.

13-mashq.



“Beshinchisi ortiqcha” o'yini. Berilgan so'zlarning ma'nosiga qarab, ortiqchasini toping. Ulardan ikkitasini tanlab, gap tuzing.

1. ular, u, go'zal, siz, biz
2. shu, men, kitob, siz, sen
3. ana u, kompyuter, sizlar, bu, u



Men, sen olmoshlariga qaratqich va tushum kelishigi qo'shimchalari qo'shilganda mening, meni, sening, seni shaklida yoziladi.


Men, sen olmoshlariga **-ning, niki, -ni** qo'shimchalari qo'shilganda kishilik olmoshlaridagi bitta *n* tushib qoladi.

Masalan: men + ni – meni; sen + ni – seni;
men + ning – mening; sen + ning – sening.

14-mashq.



Gulbarglardagi kelishik qo'shimchalarini kishilik olmoshiga qo'shib, so'zlar hosil qiling va gaplar tuzing.



Berilgan olmoshlarni kelishik qo'shimchalariga ko'ra yozing.

Bosh kelishik	Qaratqich kelishik	Tushum kelishigi	Jo'nalish kelishigi	O'rin-payt kelishigi	Chiqish kelishigi

meni, menda, mendan, men, mening, menga

sendan, senga, senda, sen, sening, seni

undan, unga, unda, u, uning, uni

bizdan, bizga, bizda, biz, bizning, bizni

sizda, sizdan, sizni, sizga, siz, sizning

ularning, ularni, ularga, ularda, ular, ulardan

15-mashq.

U, ular olmoshlari qaysi so'zlarning o'rnida qo'llanilgan?

Yozgi ta'til vaqtida men va do'stim Akobir oromgohda bo'ldik. Biz tabiat qo'ynida maza qilib dam oldik. Akobir suzish bo'yicha mashg'ulotga boradi. U suzish musobaqasida g'olib bo'ldi. Uning yutug'idan zavqlanib, men ham suzishga borishga ahd qildim. Oromgohdan bir dunyo taassurotlar bilan qaytdik. Ular haqida tengdosh do'stlarimga so'zlab berdim.

Do'stlar! Siz ham ta'tilda, albatta, oromgohga boring.

Siz ta'tilni qayerda o'tkazishni rejalashtiryapsiz?



Kafti bilan qoq ikkiga
Bo'ladi g'ishtni,
Jimjiloqda mixni bukib,
Der: "Shu ham ishmi?"
Qoyil qolib hurmatlardik
Biz uni juda,
Bir kun bilib qoldik bari
Ekan behuda.
...Avtobusda qaytar edik
Uyimiz tomon,
Qo'l ko'tarib, yo'ldan chiqdi
To'rt-besh otaxon.

Bizlar darrov joy bo'shatib,
Desak: "Marhamat!"
Oyna tomon yuzin burib
Oldi Toshpo'lat.
Bor-yo'g'i qirq daqiqalik
Yo'l edi manzil –
Do'stimizning qilg'idan
Bo'ldik mulzam, zil.
Toshpo'latning polvonligi
Ekan yolg'on, puch –
Topolmadi tik turishga
U o'zida kuch!





Qani ayting-chi, Toshpo'lat qanday xato qildi?
Nega do'stlari uning qilgan ishidan uyalib qolishdi?
Siz uning o'rnida bo'lganingizda nima qilgan
bo'lar edingiz? Jamoat transportida yurish odobi
haqida fikringizni ayting. She'rdagi kishilik
olmoshlarini aniqlab, ko'chiring.



Toshpo'latga to'g'ri maslahat bering.
Sizning ham shunday do'stlaringiz bormi?

20-mashq.



Chin do'st qanday bo'lishi kerak deb hisoblaysiz?
Xulosangizni ketma-ket yozing.

1. Samimiy bo'lishi kerak.
2. ...
3. ...
4. ...
5. ...

21-mashq.



Do'stlik haqida to'rt qator she'r to'qib yozing.
Qofiyadosh so'zlar tagiga chizing.

22-mashq.



“Ha” va “Yo‘q” ta’limiy o‘yini.

Nº	Ma'lumotlar	Ha	Yo'q
1	Kishilik olmoshlari otlardan farq qiladi.		
2	Kishilik olmoshlari biror shaxsning nomi bo'la oladi.		
3	Kishilik olmoshlari narsalarning nomi bo'la oladi.		
4	Kishilik olmoshlarini o'zi bog'langan fe'l bilan yozish mumkin emas.		

23-mashq.



“O‘rnini top!” ta’limiy o‘yini. Jadval asosida kelishik qo'shimchalarining mosini qo'yib, daftaringizga yozing.

1	2	3	3	4	5
B.k.	Q.k.	T.k.	J.k.	O'.p.k.	Ch.k.
Men	Men	Men	Men	Men	Men



U kishilik olmoshiga jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishigi qo'shimchalari qo'shilganda qanday tovush o'zgarishi sodir bo'ldi?



U olmoshiga jo'nalish, o'rin-payt va chiqish kelishiklari qo'shimchasi qo'shilganda **unga, unda, undan** shaklida yoziladi.

u+ga=unga u+da=unda u+dan=undan



Quyidagi berilgan gaplardagi **u** olmoshiga kelishik qo'shimchalaridan mosini qo'yib, gaplarni to'ldiring.

U... so'radi.

U... ko'rsatdi.

U... berdi.

U... sovg'a qildi.

U... yordam berdi.

24-mashq.



1-guruhga: Men kishilik olmoshini kelishiklar bilan qo'llab yozing.

2-guruhga: Sen kishilik olmoshini kelishiklar bilan qo'llab yozing.

Nº	Kelishik nomi	So'rog'i	Kishilik olmoshi
1	Bosh kelishik	Kim? Nima? Qayer?	Men... Sen...
2	Qaratqich kelishik	Kimning? Nimaning? Qayerning?	Men... Sen...
3	Tushum kelishigi	Kimni? Nimani? Qayerni?	Men... Sen...
4	Jo'nalish kelishigi	Kimga? Nimaga? Qayerga?	Men... Sen...
5	O'rin-payt kelishigi	Kimda? Nimada? Qayerda?	Men... Sen...
6	Chiqish kelishigi	Kimdan? Nimadan? Qayerdan?	Men... Sen...

25-mashq.



Gaplarni o'qing. Kelishik qo'shimchalaridan mosini qo'yib, ko'chiring.

1. Haqiqiy do'st topsang, u... sodiq bo'l.
2. Agar do'sting **sen...** aybingni aytib, nasihat qilsa, sen u... minnatdor bo'l.
3. Do'sting **sen...** yuzing.



1. Otlarda nechta kelishik bor?
2. **Men, sen** kishilik olmoshlariga tushum va qaratqich kelishigi qo'shilsa, qanday o'zgarish bo'ladi?
3. Jo'nalish kelishigining qo'shimchasi **u** kishilik olmoshiga qo'shilganda so'zda qanday o'zgarish bo'ladi?
4. Chiqish kelishigining qo'shimchasi qo'shilganda-chi?
5. Kishilik olmoshlarini sanab bering.

26-mashq.



O'qing. She'r matnidagi kishilik olmoshlarini aniqlab, ko'chiring.

Posbonlar

Muhammad Yusuf

Sizda orom qayda, sizda tin qayda?
Siz to'yib uxlagan bitta tun qayda?
El-yurt oromini asragan zotlar,
El mehri asrasin sizni har joyda!
Sizni uchrataman tog'da, dalada,
Xizmatda hamisha qorda, jalada.
Sizga sabot bersin, sizga kuch bersin,
Buyuk zotlar ruhi shunday pallada.
Har kun oftob bilan sog' ko'rishib yuz,
Uydan omon chiqib, omon qaytamiz.
Rizqi ulug' bo'lsin, ko'ksi ulug' bo'lsin,
Xonadoningiz-u mamlakatingiz.



Yo'llar ravon bo'lsin, yo'llar oq bo'lsin,
Bahor maysalari ko'kchiroq bo'lsin.
Burchga sadoqatli, ey fidoyilar,
Pokligingiz sizga ko'zmunchiq bo'lsin!



She'r tahlilini o'tkazing. Shoir she'rdan
nima demoqchi? Fikringizni izohlang.



27-mashq.



Matnni o'qing. Kishilik olmoshlarini toping.

Shifokorlik kasbi

Kun davomida ko'p vaqtimizni ishxonada o'tkazamiz, shuning uchun ham u bizga quvonch va zavq bag'ishlashi kerak.

Men shifokor bo'lmoqchiman. Bu qadimiy kasblardan biri. U chuqur bilimni talab qiladigan mas'uliyatli soha. Kim haqiqatdan ham boshqalarga yordam berishni istasa, o'sha inson mas'uliyatli, izlanuvchan shifokor sanaladi.

U bemorning shikoyatini shunchaki tinglamasligi, aksincha, to'g'ri tashxis qo'yishi va davolashi lozim. Bu ishni esa professional tayyorgarliksiz amalga oshirib bo'lmaydi.

Ushbu kasb egalari bayram va dam olish kunlarisiz faoliyat olib borishlariga to'g'ri keladi. Ular mashaqqatli kasbidagi halovatni har bir davolagan bemorlarining ko'zlaridagi minnatdorlikdan topadilar.



Kishilik olmoshlari ishtirok etgan
gaplarni ko'chirib yozing.
Siz kelajakda kim bo'lmoqchisiz?
Shifokor bo'lish uchun qaysi fanlarni
yaxshi bilish kerak deb hisoblaysiz?

28-mashq.



Ko'chiring. She'rdagi olmoshlarning
tagiga tegishlicha chizing.

Oy va yulduzlar

Abdurahmon Akbar

– Olamning chiroyiman,
Ko'rk-u husnga boyman.
Oyning bu gaplariga
Yulduzlar berishmas tan.
Ular der: – Sen Oy bo'lsang,
Bizlar – ko'k lolasimiz.
Sen ham, biz ham, barchamiz
Osmonning bolasimiz.



Yulduzlar haqida nimalarni bilasiz?
Ma'lumotlar topib, bilimingizni boyiting
va do'stlaringiz bilan o'rtoqlashing.



Kishilik olmoshlari uch shaxsdan biriga ishora qiladi.

Birlik	Ko'plik
I shaxs – men	I shaxs – biz
II shaxs – sen	II shaxs – siz
III shaxs – u	III shaxs – ular



Bilimingizni mustahkamlang!

Kelishik qo'shimchalari bilan qo'llangan kishilik olmoshlarida bo'ladigan tovush o'zgarishlarini ayting.



1. Kishilik olmoshlari gapda qaysi bo'lak vazifasida keladi?
2. Qaysi kishilik olmoshlari birlikni, qaysilari ko'plikni bildiradi?
3. *Men, biz* kishilik olmoshlari qaysi shaxsni bildiradi?
4. *Sen, siz* kishilik olmoshlari qaysi shaxsni bildiradi?
5. *U, ular* kishilik olmoshlari-chi?

29-mashq.



Dastro'mol, ruchka so'zlarini kishilik olmoshlari bilan yozing.

Namuna:

T/r	Birlik	Ko'plik
I	<i>Mening dastro'molim</i>	<i>Bizning dastro'molimiz</i>
II	<i>Sen... dastro'mol...</i>	<i>Siz... dastro'mol...</i>
III	<i>U... dastro'mol...</i>	<i>Ular... dastro'mol...</i>



Bilimingizni mustahkamlang. Testlarni yechib, to'g'ri javobni ko'chiring.

1. Qaysi kishilik olmoshlari so'zlovchiga ishora qiladi?

A. men, sen B. men, biz D. sen, siz E. u, ular

2. Ushbi she'rdagi olmosh haqida berilgan to'g'ri fikrni toping.

*Ulg'ayursan bir kun sen,
Bo'lursan yetuk, bardam.*

- A. Ko'plik shaklidagi kishilik olmoshi qatnashgan.
- B. Ikkita kishilik olmoshi qatnashgan.
- D. Kishilik olmoshi so'zlovchiga ishora qilgan.
- E. II shaxs birlik shaklidagi kishilik olmoshi qatnashgan.

3. Qaysi javobda kishilik olmoshi narsaning o'rnida qo'llangan?

- A. Qizchaga biror kor-hol bo'lganini payqagan Alisher bor kuchi bilan unga qarab yugurdi.
- B. Hovlimizda qip-qizil lolalar ochildi. Ular hammaning havasini keltirmoqda.
- D. Kim ko'p o'qisa, u ko'p biladi.
- E. Hamid Olimjon o'z she'riyatida shunday kamolot darajasiga erishdiki, u so'zidan tanbur torlaridek turli pardalarda foydalana bilardi.

4. *Yerni sizga sotganman. U yerdan nima chiqsa, sizniki.* Ushbu gapda nechta kishilik olmoshi qatnashgan?

- A. 1 B. 3 D. 4 E. 2

5. Qaysi javobdagi gapda II shaxs ko'plikdagi olmosh qatnashgan?

- A. Oyi, nima yumush bo'lsa, menga ayting.
- B. Men bo'sh vaqtimda qayiqcha yasayapman.
- D. Sen bu gapimni uqib ol.
- E. Sizni sog'indim, mehribon akajonim.

30-mashq.



Hikmatli so'z va maqollarni o'qing hamda ma'nosini izohlang. Kishilik olmoshlarini toping va ular ishtirokidagi gaplarni ko'chirib yozing.

1. Hayotning o'lchovi qancha yashaganda emas, siz undan qanday foydalanganingizda.
2. Haqiqat har qanday masofani bosib o'tadi, uni hech qanday to'siq to'xtatolmaydi.
3. Nima eksang, shuni o'rasan.
4. Sizdan ugina, bizdan bugina.
5. Biz hech qachon hech kimdan kam bo'lmaganmiz.
6. Sendan harakat, mendan barakat.
7. O'zingni o'zing maqtama, seni biron maqtasin.



31-mashq.



She'rdagi olmoshlarni aniqlang.

Bizning xo'ja

Abdurahmon Akbar

– Xizmatdagi o'g'limga
Xat yozib ber, ol savob,
Deb so'ragan onaga
Nurlanboy berar javob:
– Yozuvim qing'ir-qiyshiq,
Qilmayapman bahona.
Hech kim o'qiy olmaydi.
Yozgan xatimni, ona.
Meni to'g'ri tushuning,
Xat yozdirsa kimda-kim,
Uni o'qib berishga
Borishim kerak o'zim.



Siz nima deb o'ylaysiz, husnixati chiroyli bo'lish inson uchun qanchalik muhim?

“Chiroyli yoz, yozsang xat,
Chunki bu ham bir san'at”,
degan fikrga qo'shilasizmi?

32-mashq.



“Chiroyli xat egasi” nomi bilan berilgan namuna asosida xat yozing.

HURMATLI DO‘STIM ODIL!

Sen yozgan xatni oldim. Sog'lig'ingning, o'qishlaringning yaxshiligini bilib, xursand bo'ldim.

Men senga 9-may Xotira va qadrlash kuni bayramini qanday o'tkazganimiz haqida yozmoqchiman. Biz bayramni faxriy otaxon va onaxonlar bilan nishonladik. Men bayramda tinchlik haqida she'r aytdim.

Qizlar tayyorlagan milliy raqslarini namoyish etishdi.

Tinchlikni qadriga yetish haqida suhbat bo'ldi. Faxriylarga gullar berdik va esdalik uchun ular bilan rasmga tushdik.

Salom bilan Jamoliddin.

Xat matnidan kishilik olmoshlarini topib, ularning shaxs va sonini hamda qaysi kelishikda qo'llanganini ayting.

**Bilimingizni mustahkamlang.**

1. Kishilik olmoshlarini qanday farqlaysiz?
2. Kishilik olmoshlari biror shaxsning nomi bo'lib qo'llana oladimi?

3. *Men, sen* kishilik olmoshiga tushum va qaratqich kelishigi qo'shilsa, qanday o'zgarish bo'ladi?
4. Jo'nalish kelishigining qo'shimchasi *u* kishilik olmoshiga qo'shilganda so'zda qanday o'zgarish bo'ladi?
5. Chiqish kelishigining qo'shimchasi qo'shilganda-chi?
6. Kishilik va ko'rsatish olmoshlarini sanab bering.

33-mashq.



Gaplarni o'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga so'roq bering.

- Ularning ikkisi ko'chaning **u** boshida, ikkisi **bu** boshida sergak turardi.
- Bu qariyani butun yurt izzat qilardi.
- Tog'asining **shu** odati sababli, o'g'li Haydar ham, qizi Tohira ham **bu** xonadondan bezib ketishdi.
- **Mana bu** – qo'shnimning kuchugi.
- **Ana u** yerda odamlar yerni kovlayapti.

Ayting-chi, yana qanday so'zlar “Qaysi?” so'rog'iga javob bo'ladi?



Bilimingizni mustahkamlang. Testlarni yechib, to'g'ri javobni ko'chiring.

- 1. *Kindik qoni to'kilgan,
Tug'ilib o'sgan diyor.
Ona kabi mehribon,
Yagona va betakror.
Bag'rida biz quvnaymiz,
Uni Vatan ataymiz.***

Ushbu she'rdagi kishilik olmoshlari haqidagi fikrni toping.

- A. Ko'plikdagi kishilik olmoshi qatnashgan.
 - B. Ikkita kishilik olmoshi qatnashgan.
 - D. Kishilik olmoshi so'zlovchiga ishora qilgan.
 - E. Il shaxs birlikdagi kishilik olmoshi qatnashgan.
- 2. Qaysi javobda kishilik olmoshi narsaning o'rnida qo'llanilgan?**
 - A. Biz o'z Vatanimizni sevamiz va u bilan faxrlanamiz!
 - B. Biz uyimiz va ko'chamizni ozoda tutishimiz kerak.
 - D. Qalamlar qadimda paydo bo'lgan, hozir ularning xilma-xil turlari bor.
 - E. Kitoblar – dunyo ko'zgusi, biz bilimli bo'lishimiz uchun, albatta, ko'p kitob o'qishimiz kerak.
- 3. *Usturlob – yulduzlar joylashuv gradusini aniqlash uchun yaratilgan uskuna. Undan bobolarimiz yulduzlar joylashuvini o'rganishda foydalanganlar.***

Ushbu asardan olingan parchadagi olmoshni toping.

A. uchun B. undan D. uskuna E. gradus

4. *Butun dunyoga mashhur amerikalik ixtirochi Tomas Edisondir. U telefon, telegraf, elektr lampani yaratgan. Siz ham u kabi buyuk ixtirochi bo'lishni xohlaysizmi?*

Ushbu matnda olib tashlash mumkin bo'lgan nechta kishilik olmoshi qatnashgan?

A. 2 ta B. 3 ta D. 4 ta E. 1 ta

34-mashq.



“Tushunchalar tahlili” mashqi.

Tushunchalar	Tahlili
Fe'l	Men, sen, u, biz, siz, ular – Kim? Kimlar? so'roqlariga javob bo'ladi. Kim? – Men, sen, u. Kimlar? – Ular.
Olmosh	Narsa va shaxsning belgisini bildirib, Qanday? Qanaqa? so'roqlariga javob bo'ladigan so'zlar.
Gap	Narsa va shaxsning harakatini bildirib, Nima qildi? Nima qilyapti? Nima qilmoqchi? so'roqlariga javob bo'ladigan so'zlar.
Sifat	Darak, so'roq, his-hayajon va buyruq maylida qo'llanilib, tugallangan mazmunni bildiradi.

35-mashq.

**Matnni o'qing. Fe'llarni toping.**

Bir tonna quruq barg yoqilganda havoga o'ttiz kilogramm zararli chiqindi ajralib chiqadi. Ushbu havodan minglab, millionlab insonlar nafas olgach, ularning sog'lig'iga putur yetadi. Bunda inson organizmini sekin-asta ishdan chiqargan holda birinchi galda bronx-o'pka tizimi aziyat chekadi. So'ng buyraklar va jigar, bosh miya, asab tizimi shikastlanadi, shuningdek, immunitet pasayadi.

Sizningcha, havo toza bo'lishi uchun insonlar nima ishlar qilishi kerak? Siz havoni iflos qilinayotgan vaziyatlarga guvoh bo'lganmisiz? Fikringizni izohlang.

36-mashq.



**Qavs ichida berilgan fe'llardan mosini qo'yib, maqollarni yozing.
Nima uchun aynan shu so'zni tanladingiz?**

1. Ish ustasidan (ortar, qo'rqar).
2. Oz (so'zla, gapir), ko'p (tingla, eshit).
3. Kishining so'ziga emas, ishiga (boq, qara).
4. Aytar so'zni (ayt, so'zla),
Aytmas so'zdan qayt.
5. To'g'ri odam egri so'zdan (or qilar, uyalar).

37-mashq.



Vaqt so'ziga sinkveyn tuzing.

Vaqt		
1	Nima?	
2	Qanday?	
3	Nima qiladi?	
4	Gap	
5	Ma'nodosh so'z	

38-mashq.



Ikkita fe'l qatnashgan
topishmoqlardan
topib, ko'chiring.

Namuna:

*Tilla sandiq ochildi,
Ichidan zar sochildi.*



39-mashq.



Poyabzal va qalam o'rtasida qanday umumiylik bor? Ta'riflang.



40-mashq.



Iboralarning ma'nosini tushuntiring.
Ko'zgu yordamida teskari gaplarni o'qing.
Ulardan foydalanib, ikkita gap tuzing.

- Og'zi ochilib qoldi – iblop dil'od noʻyʻat
- Qolipdan chiqqan g'ishtdek – inomot ʻmmar
sirket tekis
- Ayilday botdi – ibijʻat
- Pisanda qilmoq – pomtsʻel

41-mashq.

**Futbol o'ynaymiz:**

To'plardagi bo'g'irlarni birlashtirib, fe'llar hosil qiling. Kim ko'p fe'l hosil qilsa, darvozaga shuncha to'p kiritgan bo'lib, g'olib sanaladi.



42-mashq.



Rasmlarda tasvirlangan o'quv qurollari nomlariga mos keladigan fe'llarni qo'shib, gap tuzing.



- Fe'l deb nimaga aytiladi?
- Fe'l qanday so'roqlarga javob bo'ladi?
- Fe'lda nechta zamon bor? Nomlarini ayting.
- Fe'l zamonlari qanday qo'shimchalarga ko'ra ajratiladi?

43-mashq.



Quyidagi berilgan fe'llarni qo'shimchalariga ko'ra zamonlarga moslab jadval asosida daftaringizga yozing. Ular ishtirokida to'rtta gap tuzing.

O'tgan zamon	Hozirgi zamon	Kelasi zamon
<i>kuldik</i>	<i>yozyapman</i>	<i>chopmoqchi</i>

Foydalanish uchun so'zlar:

kuldi, kuldilar, kuldimgiz, kuldim, kuldimgiz, yozgan, yozmoqchi, yozdi, yozganman, yozganlar, yugurdi, yuguryapti, yugurmoqchi, chopmoqchilar, chopadi, bordi, bormoqchi, boryapti, o'tirdi, o'tiryapti, ovqatlanadi, ovqatlanayapti, ovqatlanmoqchi, chizyapti, chizmoqchi, chizdi.

44-mashq.



Berilgan fe'llarni uchala shaxsda birlik va ko'plikda tuslang.

Kul, bordi, chopmoqchi, o'ynadi.

Namuna:

Shaxslar	Birlik	Ko'plik
I shaxs	<i>kuldim</i>	<i>kuldik</i>
II shaxs	<i>kulding</i>	<i>kuldingiz</i>
III shaxs	<i>kuldi</i>	<i>kuldilar</i>

Shaxs-son qo'shimchalarini tuslovchi qo'shimchalar deb ataymiz. Fe'llarning tuslovchi qo'shimchalar bilan qo'llanishi **tuslanish** deyiladi.

45-mashq.



Berilgan so'zlardan foydalanib, gaplarni davom ettiring. Qaysi zamon fe'llarini yozganingizni izohlang.

Men qalamlar bilan

Men mo'yqalam bilan

Men o'chirg'ich bilan

Men qalam ochqich bilan qalamning uchini

Men qaychi bilan

Men yelim bilan

Foydalanish uchun so'zlar: bo'yayapman, qirqyapman, yelimlayapman, chizyapman, o'tkirlayapman, yo'nyapman, o'chiryapman.

Namuna: Men ruchka bilan yozyapman.

46-mashq.



Ushbu *yuguryapti, o'qiyapti, kelyapti, chizyapti, ovqatlanyapti, sakrayapti, kuylayapti, suzyapti* kabi fe'llarni harakat bajarilmagan fe'llarga aylantirib yozing.



47-mashq.



Berilgan savollarga yozma javob bering.
Misollar keltirib yozing.

- *Nima qildi? Nima qilyapti? Nima qilmoqchi?* so'roqlariga javob bo'lgan so'zlar nima deyiladi?
- Harakatni bildirgan so'zlar qaysi so'z turkumiga oid?
- Fe'llar gapda qanday vazifani bajaradi?
- Fe'lning bo'lishsizlik shakli qanday hosil bo'ladi?
- Fe'lning shaxs-son qo'shimchalari bilan qo'llanilishi nima deyiladi?


48-mashq.



Berilgan fe'llarga yaqin ma'noli fe'llarni toping.

Namuna:

gapirmoq



so'zlammoq

yanglishmoq



adashmoq

Foydalanish uchun so'zlar: o'ynamoq, kuylamoq, artmoq, ovqatlanmoq.

Shu so'zlar ishtirokida gaplar tuzing. O'zi bog'langan so'zlarning tagiga chizing.

49-mashq.



Berilgan so'zlarni o'qing va ular ishtirokida so'z birikmalari hosil qiling.

1. Tushunmoq, anglamoq, uqmoq.
2. Yordam bermoq, qarashmoq, ko'maklashmoq.
3. Aytmoq, gapirmoq, bayon qilmoq.

Har bir qatordagi so'zlarning qanday o'xshash tomonlari bor? Siz bu so'zlarning qaysilaridan ko'proq foydalanasiz?

Namuna: Fikrini bayon qildi, mavzuni tushundi.

50-mashq.



Rivoyatni o'qing va ajratib ko'rsatilgan so'zlarni ko'chirib yozing.

Ota bolalariga tinch-totuv, ahil yashanglar, deya **nasihat qilar**, bolalar esa **quloq solishmas** ekan. Bir kuni u bolalariga **supurgi keltirishni buyuribdi va debdi**:

– **Sindiringlar!**

Bolalari **qancha urinishmasin, supurgini sindira olishmabdi**.

Shunda ota **supurgining bog'lamini yechib**, bir donadan **cho'pini sindirishni buyuribdi**.

Bolalari yakka cho'plarni **osongina sindirishibdi**.

Buni kuzatib turgan ota **shunday debdi**:

– Sizlar ham xuddi shundaysizlar: **ahil bo'lsanglar**, sizlarni **hech kim yengolmaydi**, agar **janjallashib** har kim har yonga **tarqalgudek bo'lsa**, sizlarni duch kelgan kimsa **osongina yengadi**.



51-mashq.



She'rni ifodali o'qing.

Yomg'ir

Kavsar Turdiyeva

Yomg'ir, yomg'ir, yog'aloq,
Shoshma, shoshma, shoshqaloq.
Sanayman men tomchingni,
Yomg'ir, yomg'ir yog'aloq,
Ekin chiqarar quloq.
O'z vaqtingda yog'ib ol,
So'ng bo'lmasin qatqaloq
Ekinlarni bo'ldirding,
Ariqlarni to'ldirding.
Yerlarni gulga bezab,
G'unchalarni kuldirding.
Yomg'ir, yomg'ir tomchilar,
Sho'x-sho'x o'ynab tomchilar.
Buncha sho'x uchar ular,
Yurakka ilhomchilar.



She'r tahlili o'tkazing. Qofiyadosh so'zlarni ko'chiring.

52-mashq.



Aka-uka Hasan hamda Husan bo'lishli va bo'lishsiz fe'llarni men yaxshi bilaman, deya bahs boylashibdi. Hasan bo'lishli fe'llarni, Husan esa bo'lishsiz fe'llarni yozishi kerak ekan. Qani ayting-chi, ulardan qaysi biri g'olib?

Hasan



Keldi, bordi, chizdi,
yorg'aladi, lovulladi,
bo'yadi, o'tirdi, chopdi,
o'ynadi, sakradi, tasvirladi,
harakatlandi, to'xtadi.

Husan



*Kelmadi, o'tirdi, yozmadi,
yugurmadi, vovilladi,
yo'rg'aladi, lovulladi,
bo'yamadi, o'tirmadi,
chopdi, o'ynadi, sakradi,
tasvirladi, harakatlanmadi,
to'xtamadi.*

Kim xato qilgan? Xatolarni to'g'rilab ko'chiring.

Berilgan tasvirdagi bo'lishli va bo'lishsiz fe'llarni ko'chirib yozing. To'rtta yoki beshta gapdan iborat matn tuzing.



54-mashq.



Ko'chiring. Bo'lishli va bo'lishsiz fe'llarning tagiga chizing.



U yoqqa qarasangiz, ko'rinmaydi,
Bu yoqqa qarasangiz, ko'rinmaydi,
Boshingizga qarasangiz, ko'rinmaydi,
Soyangizga qarasangiz, ko'rinadi.

Chopsa, chopilmaydi.
Kessa, kesilmaydi.

55-mashq.



Maqollardagi bo'lishli va bo'lishsiz fe'llarning tagiga chizing. O'zingiz ham shu kabi fe'llar qatnashgan maqollar toping.


1. Yaxshilik qilolmasang, yomonlik ham qilma.
2. Avval kuzat, keyin tuzat.
3. Yaxshida gina bo'lmas,
Yomondan gina ketmas.
4. Gap bilan shoshma, ish bilan shosh.
5. Kishining ishiga boqma, so'ziga boq.
6. Do'st so'zini tashlama,
Tashlab boshing qashlama.

56-mashq.

She'r matnini yoddan yozing.
Bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar
tagiga chizing.

Gullarga suv tashiyman,
Qo'lda jajji chelagim.
Charchamayman sira ham,
Juda kuchli bilagim.

Olobergan Po'lat



57-mashq.

She'ni ko'chiring. Fe'llarning tagiga chizing.

Rustam menga do'st edi,
Har bir so'zi rost edi.
Orzumiz bir, bir tilak,
Ko'plar derdi egizak.
Bizlar shunday do'st edik,
Mayizni bo'lib yerdik.
Bo'lib qoldim men kasal,
Undan bolmadi xabar.
So'ng eshitsam Suyundan,
Bo'shamabdi o'yindan.

Toshpo'lat Hamdamov



She'r matnidan nimani tushundingiz? Do'stingiz betob bo'lib qolsa, holidan xabar olish zarur deb hisoblaysizmi? Nima uchun?

58-mashq.



Bo'lishli fe'llarni bo'lishsiz fe'llarga aylantiring.

I guruhga	II guruhga	III guruhga
Yozdi-...	chizdi-...	uxlayapti-...
O'qidi-...	bordi-...	chiqyapti-...
Aytdi-...	keldi-...	arralayapti-...
Isiyapti-...	saqlaydi-...	yasaydi-...
Boryapti-...	ishlaydi-...	ko'radi-...

59-mashq.



Mehnatsevarlik haqidagi maqollarni o'qing.

1. Mehnatdan qo'rqma, minnatdan qo'rq.
2. Ish seni yengmasin, sen ishni yeng.
3. Ishlagan osh tishlar, ishlamagan tosh tishlar.
4. Ishdan qo'rqmagan qishdan qo'rqmas.

Maqollar tarkibidagi fe'llarni aniqlang.

Ular qanday shakllarda qo'llangan?

Nima uchun?

60-mashq.



Matndan fe'llarni aniqlab, o'zi bog'langan so'z bilan birga ko'chiring.

Piyoz juda qadimdan ma'lum ozuqadir. Uni qadimgi Misr aholisi juda ardoqlagan. Yunonlar esa piyozni ilohiy o'simlik deb bilgan. Uning qavat-qavat ichki tuzilishini Koinot tuzilishiga, ya'ni osmon qavatlariga qiyoslashgan. Yunonlarning dala va o'rmonlar ma'budi Pan ham piyozbosh ko'rinishida tasvirlangan. Shunga qaramay, zodagon rimliklar singari zodagon yunonlar ham piyoz iste'mol qilishni o'zlariga ep ko'rmaganlar. Uning o'tkir hidi og'izdan noxush hid taratishi bunga sabab bo'lgan. Rimliklarda esa, aksincha, kishining ijtimoiy darajasidan qat'i nazar, deyarli barcha piyozni ko'p iste'mol qilgan. Piyozning vatani hozirgacha aniq belgilanmagan.

(*"O'simliklar olamiga sayohat". –*

Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2018.)



Nima deb o'ylaysiz, piyozsiz qanday taom tayyorlash mumkin?

61-mashq.



Muhammad Yusufning fikrlari va Abdulla Avloniyning hikmatli so'zlarini o'qib, nimani angladingiz? Fikringizni izohlang. Husnixat asosida ko'chiring.

**Muhammad Yusuf**

Garchi zug'um qilganlarni yoqtirmadim,
She'r yozdim-u, bo'lak ishni qotirmadim.
Tilim turib, o'z tilimda gapirmadim,
Bir eslasam eziladi bag'ri dilim,
Ona tilim, kechir meni, ona tilim.

**Abdulla Avloniy**

Milliy tilni yo'qotmak millatning
ruhini yo'qotmakdur.

62-mashq.



Topishmoqlarning javobini topib,
topqirligingizni namoyon eting.

Hovuzga qopqoq bo'lar,
Ayni qish chog'i.
Bahor nafasi yelgach,
So'nar chirog'i.

Choyga solsam, erib ketar,
Lazzatini berib ketar.

Ko'zlarimga qilib zo'rlik,
Tongda ketdi charchab, sho'rlik.

63-mashq.



Chalkash berilgan so'zlardan gaplar tuzing.

- I guruh:** katta, bahorda, qozonda, pishirildi, sumalak, sara, eng, donidan, tayyorlanadi, sumalak, bug'doy.
- II guruh:** Amirxon, nom, deb, kuchukchasiga, qo'ydi, tez, katta, bo'ldi, kunda, Qoravoy.
- III guruh:** Har, bog'imizda, xil, ochiladi, gullar, bahorda, otam, turli, ko'chatlardan, yil, ham, gul, bu, ekdilar.

64-mashq.



Nuqtalar o'rniga mos so'zlarni qo'yib, gaplarni davom ettiring. Harf birikmalari qatnashgan so'zlarning tagiga chizing.

Siz partada to'g'ri ... (turing, o'tiring).
Dokada chiroyli ... (oching, yozing).
Sinfga bittadan ... (kiring, oling).
Daftarlarni stolga ... (bering, qo'ying).
Kitobni ... (chizing, saqlang).
Eshikni sekin ... (yoping, o'qing).

65-mashq.



Matnda berilgan fe'llarni bo'lishsiz fe'llarga aylantirib, qayta matn tuzing.

Har fasl o'ziga xos ob-havoga ega. Qishda ob-havo sovuq bo'ladi va qor yog'adi. Hamma yoq oppoq qor bilan qoplanadi. Bahorda havo iliq bo'ladi va yomg'ir yog'adi. Yomg'irdan so'ng osmonda kamalak paydo bo'ladi. Yozda ob-havo issiq bo'ladi. Mevalar pishib yetiladi. Kuzda kunlar salqin bo'ladi va tez-tez yomg'ir yog'adi.

66-mashq.



Gaplarga mos so'zlarni qo'yib, ko'chiring.

1. Naqqosh gullarni oltin ranglar bilan ... qildi.
A. yakun B. pardozi D. o'lcham
2. Qaysi hunar egasi bo'lishingdan ... uni san'at darajasiga olib chiq!
A. muqaddam B. oldin D. qat'i nazar
3. Mehmonlar dasturxoniga qovun va tarvuzdan ... usulida gullar tayyorlandi.
A. ganchkorlik B. karving D. origami

67-mashq.



She'ni tahlil qiling.

Men aytib turay so'zni,
Siz antonim topinglar.
Go'yo marrani ko'zlab,
Kimo'zarga chopinglar.
"Uzoqqa" menman – "yaqin",
"Janub"ga qarshi "shimol",
"Zahar"ga, albatta, "bol".



"Ko'p" gadir antonim "oz",
"Qish"ga esa qarshi "yoz".
"Saraton"ga "qahraton",
"Yaxshi"ga esa "yomon".
Qarshi ma'noli so'zni
Izlashda qolmang tolib,
"Mag'lub"likka siz qarshi
Bo'linglar doim "g'olib".

Kavsar Turdiyeva

Siz qanday qarama-qarshi ma'noli so'zlarni bilasiz?
Ular ishtirokida 5-6 ta gap tuzing.

68-mashq.



Quyidagi parcha "O'qish savodxonligi" darsligingizdagi qaysi hikoyadan olingan? Ushbu hikoyadagi bo'lishli va bo'lishsiz fe'llardan beshtadan topib yozing.

O'zi juda hushyor, aqlli ham ekan. Televizor tomosha qilishni yaxshi ko'rarkan. Har kuni o'n soat tomosha ko'rmasa, ham oyog'i, ham tomog'i og'rib qolarkan.

69-mashq.



“Fe’lar toping” ta’limiy o’yini. Guruhlarga bo’linib, berilgan harflar bilan boshlanuvchi fe’llarni kim tez va to’g’ri topsa, shu guruh g’olib sanaladi. G’olib guruh topgan fe’llarni daftaringizga ko’chiring.

I guruh uchun:	II guruh uchun:	III guruh uchun:
1. O →	2. U →	3. A →
4. K →	5. T →	6. Ch →

70-mashq.



“Zukko o’quvchi” ta’limiy o’yini.

So’zlarni qo’shimchalar bilan birlashtirib, o’tgan zamon fe’lini hosil qiling.

So’z		Qo’shimchalar
Qirq		
Qo’rq		-gan
Bich		-kan
Cho’k		-qan
Chop		

71-mashq.



Guruhlarga bo'linib, topshiriqni bajaring.

I guruh: *-gan* o'tgan zamon qo'shimchasi yordamida fe'llar tuzib, ular qatorini davom ettiring.

Bor	→	
Kel		-gan
Yur		

II guruh: *-kan* o'tgan zamon qo'shimchasi yordamida fe'llar tuzib, ular qatorini davom ettiring.

Ek	→	
Tik		-kan
To'k		

III guruh: *-qan* o'tgan zamon qo'shimchasi yordamida fe'llar tuzib, ular qatorini davom ettiring.

Chaq	→	
Chiq		-qan
Qirq		



-k, -q bilan tugagan fe'lga o'tgan zamon qo'shimchasi qo'shilganda, -kan, -qan tarzida yoziladi: *kechikkan, boqqan.*

72-mashq.



Ajratib ko'rsatilgan fe'llarni o'zi bog'langan so'zlar bilan birga ko'chiring.

- Buyuk bobolarning ulug'vor ishlari bilan **faxrlan**.
- Sizga muhtojlik sezgan kishilarga **yordamlashing**.
- Agar joningni Vatanga fido qilolmasang, o'zingni vatanparvar **hisoblama**.
- Yagona yaxshi maqsad yo'lida **birlashing**.



73-mashq.



Rasmdagi sport anjomlaridan foydalanib, shu sport turi bilan shug'ullanuvchilarning nomlarini yozing.



Koptok va shaxmat so'zlari qatnashgan gap tuzing.
Siz qaysi sport turiga qiziqasiz?

74-mashq.



Daftaringizga quyidagi jadvalni chizing. Jadvalni o'zingiz haqingizdagi ma'lumotlar bilan to'ldiring.

Ismingiz	
Familiyangiz	
Maktabingiz va sinfingiz	
Otangizning kasbi	
Onangizning kasbi	
Qiziqishingiz	
Kelajakda qanday yangilik yaratishni istashingiz	

75-mashq.

**“Meni tushun” ta’limiy o’yini.**

Bu o’yinda o’qituvchi yoki o’quvchilardan biri doskaga chiqib, yuz, qo’l va oyoq harakatlari yordamida biror-bir holatni ifodalaydi. O’quvchilar shu holatni aniqlab, daftarlariga yozadilar.

76-mashq.



Kun tartibingizni tuzing. Kun tartibi nima uchun kerak deb o’ylaysiz?

Kunning
birinchi qismi



ertalab

soat



yetti

Bajariladigan ish



o’rnimdan turaman,

Davom ettiring: _____ soat _____



77-mashq.



Qizil qo'ziqorinlar soni qancha bo'lsa, shuncha bo'lishli va bo'lishsiz fe'llarga misollar yozing.





So'z asosiga **-la, -lan, -sira, -illa (-ulla), -lash** yasovchi qo'shimchalarni qo'shish yordamida fe'l hosil qilinadi.

78-mashq.



Berilgan gaplardagi fe'l yasovchi qo'shimchalarni aniqlab, gaplarni ko'chiring.

1. Ko'maklashgan ish bitar.
2. Talashgan yerda tariq bitmas.
3. Odob – salomlashishdan boshlanadi.
4. Askardek biyron so'zla,
So'zlaganda mazmunni ko'zla. (*Quddus Muhammadiy*)



79-mashq.



Quyida berilgan so'zlarga fe'l yasovchi qo'shimchalardan mosini qo'yib, musobaqa tashkil qiling. Kim ko'p so'z hosil qilsa, shohsupaga ko'tarilib g'olib bo'ladi.



Namuna: oq + la = oqla

shaqilla

arra

taq

viz

so'z

vaq

toza

chap

dasta

80-mashq.



Jadvalda berilgan so'zga fe'l yasovchi qo'shimchalardan mosini qo'yib, so'zlar hosil qiling va ular ishtirokida gap tuzing.

lash	lan	la	illa	ulla
ta'riflashgan				

81-mashq.



She'rdagi qofiyadosh so'zlar qaysi so'z turkumiga oid? Fe'llarning tagiga chizing.

Bahor so'zi

Rauf Tolib

Tog'lar bag'ri – adirlarda
Lolaman, lovullayman.
Ko'piraman, guvullayman,
Sho'x soyday shovullayman.
Uyg'onaman, ko'z ochaman,
Go'zal sirli tong bo'lib.
Tovlanaman kamalakday,
Turfa-turfa rang bo'lib.



82-mashq.



So'zlarga fe'l yasovchi qo'shimchalardan mosini qo'shib, so'z hosil qiling. Hosil bo'lgan so'zlarni namunadagidek tahlil qiling.

So'z	-gan	-kan	-qan
ek		ekkan	
taq			
bor			
chaq			
ol			

Namuna: *-gan, -kan, qan* o'tgan zamon qo'shimchalari bo'lib, ular ish-harakatning bajarilganini bildiradi.
ek+kan – ekkan o'tgan zamon fe'li *-kan* qo'shimchasi bilan hosil qilingan.



83-mashq.



“Sherigini top!” ta’limiy o’yini. Nuqtalar o'rniga fe'l yasovchi qo'shimchalardan mosini qo'yib, yangi so'z hosil qiling. Yana qanday so'zlar hosil qila oldingiz?

So'zlar		Fe'l yasovchi qo'shimchalar
Shar...		-la
Soz...		lan
Shod...		-sira
Bir...		-illa
Viz...		-lash
Tinch...		-ulla

84-mashq.



Quyida berilgan fe'llarni ko'chirib, fe'l yasovchi qo'shimchalar qatnashgan so'zlarni aniqlang va ularni tegishlicha belgilang.

ta'riflashgan, vaqillaydi, tanlanadi, saqlashdi, tozalaydi, shovullagan, boshlamoqchi, ovqatlanishdi, lovullamoq, vishillamoq, suluvlangan, yiltillagan, qarsilla, guvullaydi, uyg'onaman, ochaman, tovlanaman.



Namuna: suluvlangan, yiltillagan.

85-mashq.



Kichik guruhlarda ishlash:

-sira, -illa fe'l yasovchi qo'shimchalariga mos so'zlar toping.



86-mashq.



She'ni yoddan yozing.

Uyg'onaman, ko'z ochaman,
Go'zal sirli tong bo'lib.
Tovlanaman kamalakday,
Turfa-turfa rang bo'lib.


Rauf Tolib



87-mashq.



Asalari Mayaga yangi so'zlar hosil qilishga yordam bering. Ushbu so'zlardan gaplar tuzing.



88-mashq.



Topishmoqlarni ko'chiring.
Bo'lishli va bo'lishsiz fe'llarni aniqlang.

*Pishirsang osh bo'lur,
Pishirmasang qush bo'lur.*

*Hech ham tinim bilmaydi,
Lek joyidan jilmaydi.*

89-mashq.



Quyida berilgan so'zlarni to'g'ri qo'llab, gaplarni davom ettiring. Fe'llarni aniqlang. O'zi bog'langan kelishik qo'shimchalari bilan birga yozib, tegishlicha belgilang.

1. Mohirbek ustiga toza ko'ylak
2. Adiba kiyimini
3. Ukam oyog'iga yangi paypoqni
4. Biz javonga toza kiyimlarni
5. Bobom boshiga yangi do'ppi
6. Akamga qora shimi
7. Onam maktab kiyimimni toza
8. Men javonga toza kiyimlarni

Foydalanish uchun so'zlar: *ilamiz, yuvadilar, yechyapman, kiydi, taxlayman, dazmollayapti, kiyyapti, sotib oldilar, yog'adi.*

90-mashq.



Bulutchalardagi so'zlarga fe'l yasovchi qo'shimchalardan mosini qo'shib yozing.

yalt

taq

ikki

dod

oq

boy

chirq

lov

guv

91-mashq.



Matnda nechta gap bor? Tinish belgilarini qo'yib, matnni qayta ko'chiring.

Bugun aksar taomlarni kartoshkasiz tasavvur qilib bo'lmaydi, biroq kartoshka biz tomonlarga ikki asr muqaddam kirib kelgan xolos uni avvaliga noma'lum zamonlarda Janubiy Amerika hindulari madaniylashtirgan Yevropaga esa birinchi marta 1565-yilda ispan dengizchilari keltirgan avvaliga yevropaliklar bu o'simlikni ozuqa manbai sifatida emas, balki dekorativ o'simlik sifatida o'stirgan 1800-yilda ham hali Yevropada kartoshka noyob sanalgan va odamlar bayramlarda uni bir-birlariga sovg'a qilishgan hozirda esa bu eng ko'p taom tayyorlanadigan mahsulot hisoblanadi.

(*"O'simliklar olamiga sayohat". –*

Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2018.)



Siz qanday kartoshkali qanday taomlarni bilasiz? Ushbu mahsulotdan foydalanib, mustaqil taom tayyorlaganmisiz?

92-mashq.



Qavs ichidagi so'zlardan mosini qo'yib, gaplarni to'ldiring.

Men quymoq uchun (*olma, un, bodring, tuxum*) sotib oldim. Akam o'rik (*qaymoqni, palovni, nonni, sharbatini*) oladi. Tort uchun (*makaron, tuz, shakar, guruch*) kerak ekan. Otam oziq-ovqatlar do'konidan 2 kilogramm (*non, soat, rasm, guruch*) sotib oladilar. Men ertalab yangi uzilgan, issiq (*asal, bodring, limon, non*) olib keldim.

93-mashq.



Uyali aloqa vositalari haqida bilasizmi?

Men uyali telefonga qiziqib qoldim. Uning foydali va zararli tomonlari haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lmoqchiman. Siz bu haqida nimalarni bilasiz?

Foydali maslahatlar

- Telefon quvvatlagichda turgan paytda undan foydalanish siz uchun ham, telefon uchun ham zararli.
- Telefonda uzoq vaqt gaplashish sog'lig'ingizga ziyon yetkazadi.
- Internetdan foydalanganda faqat ota-onangiz ruxsat bergan saytlarga kiring.
- Telefon orqali suhbatlashayotganingizda ham axloq qoidalariga rioya qiling.

- Dastlabki telefonlarda bosish tugmalari ham, disk ham bo'lmagan. Kimgadir qo'ng'iroq qilish uchun go'shakni ko'tarish va telefon navbatchisidan kerakli telefon raqamiga ulab berish so'ralgan.



- Uyali telefondan birinchi qo'ng'iroq 1973-yil 3-aprelda amalga oshirilgan.
- Uyali telefonlarning kirib kelishi soat va qo'ng'iroqsoatlarga bo'lgan ehtiyojning kamayishiga sabab bo'ldi.

- Uyali telefonga o'rganib qolish nomofobiya deyiladi.
- Telefon 1876-yilda kelib chiqishi shotland bo'lgan amerikalik muhandis va o'qituvchi Grexem Bell tomonidan ixtiro qilingan.



Birinchi ishlab chiqarilgan telefon bilan eng oxirgi, yangi rusumli telefonlarning qanday farqi bor?

Yozgan ta'rifingizdan bo'lishli va bo'lishsiz fe'llarni toping.



Tasavvur qiling, oila a'zolaringiz sizga uyali telefon orqali internet saytlariga kirishga taqiq qo'yishdi. Siz o'zingizni qanday tutasiz? Internetdan to'g'ri foydalanishingizni ularga qanday isbotlay olasiz? Fikringizni batafsil ayting.

94-mashq.



Fe'l so'z turkumi haqida o'rganganlaringizni daftaringizga BBB jadvali asosida yozing.

Namuna:

"Bilaman"	"Bilib oldim"	"Bilishni xohlayman"
Fe'l so'z turkumi ekanligini hamda Nima qildi? so'rog'iga javob bo'lishini	Fe'l zamonlarini	Fe'l so'z turkumi mavzusida yanada kengroq bilishni

95-mashq.



“O‘qish savodxonligi” darsligingizdagi
“Tabiat – bebaho ne‘mat” matnida ishtirok
etgan fe'llarni aniqlab, jadval asosida tuslang.

Ona tabiatga bo'lgan hurmatsizlik bir kun bizga ham qimmatga tushadi. Bugungi kunda chiroyli xiyobonlarni ko'nglimiz tusab oshiqamiz, biroq u yerni ham har xil chiqindilarga to'ldirib qaytamiz. Har bir yetkazgan ozorlarimiz uchun tabiat bizni kechirarmikan?

Ekologiyaning buzilishi nafaqat atrofga, balki insoniyatga ham juda katta ta'sir qiladi. Turli xil kasalliklarni keltirib chiqaradi. Insonlar bila turib, o'zlarining hayotiga o'zlari zomin bo'lmoqda. Bizning tabiat oldidagi burchimiz uni asrab-avaylashga o'z hissamizni qo'shish va boshqalarni ham bunga chaqirishdir.

Namuna:

Shaxslar	Sonlar	
	Birlik qo'shimchalari	Ko'plik qo'shimchalari
I shaxs	qaytdim, ishlayap man	qaytdik, ishlayap imiz
II shaxs	qaytd ing , ishlayap san	qaytd ingiz , ishlayap siz
III shaxs	qaytdi, ishlayap ti	qaytd ilar , ishlayap tilar

96-mashq.



Fe'llardagi -m, -man, -ng, -san, -di(-ti), -k, -miz, -ngiz, -siz, -di(lar) **shaxs-son qo'shimchalaridir.**

Men shaxmat to'garagiga bordim. Sen qaysi to'garakka qatnashyapsan?

Ura, men shaxmat bo'yicha musobaqada birinchi o'rinni egalladim!

Gapdagi ega qaysi shaxsni ifodalagan?

Birinchi gapdagi olmosh nechanchi shaxs kishilik olmoshi?

Fe'l oxiridagi -im qo'shimchasi qanday ma'noni anglatadi?

Men nechanchi shaxs?

Birinchi gapdagi men olmoshining o'rniga biz olmoshini qo'yib, gapni o'qing.

Fe'lda qanday o'zgarish sodir bo'ldi?

97-mashq.



Quyidagi fe'llarni namuna asosida tuslang:
chizdi, bo'yadi, keldi, yurdi.

Shaxs	Birlik	Ko'plik
I shaxs	Yozdim, yozaman, yozay(in)	Yozdik, yozamiz, yozaylik
II shaxs	Yozding, yozasan, yoz(gin)	Yozdingiz, yozasiz, yozing(iz)
III shaxs	Yozdi, yozadi, yozsin	Yozdilar, yozadilar, yozsinlar

98-mashq.



Berilgan gaplarni III shaxsda
tuslab davom ettiring.

Birlik.

I shaxs: Men aytdim. Men yozmoqchiman.
Men arralayapman.

II shaxs: Sen aytding. Sen yozmoqchisan.
Sen arralayapsan.

III shaxs:

Ko'plik.

I shaxs: Biz aytdik. Biz yozmoqchimiz. Biz arralayapmiz.

II shaxs: Siz aytdingiz. Siz yozmoqchisiz. Siz arralayapsiz.

III shaxs:

99-mashq.



Quyidagi savollarga javob bering
va misollar keltiring.

1. Fe'l so'z turkumi deb nimaga aytiladi?
2. Fe'l zamonlariga misollar keltira olasizmi?
3. Fe'l yasovchi qo'shimchalarni aytib bering.

100-mashq.



She'rni yoddan ko'chiring.

Hozirjavob bolalar


Xudoyberdi Komilov

Ishonchli bahona

- Yozuvlaring namuncha Qing'ir-qiyshiq, betayin?
- Bobomning oynaklari Sinib qolgan, netayin.

Bozorda

- Savatdagi qulupnay Qayga yo'qoldi, Habib?
- Men yeb oldim, oyijon, Sizga yengil bo'lsin deb.



101-mashq.



Matnni o'qing va mazmunini so'zlab bering.

Mevalar iste'mol qilishni barcha yoqtiradi. Ular inson sog'lig'i uchun juda foydali. O'zbekiston jannatmakon o'lka! Bizning o'lkamizda yetishtirilgan mevalar juda ham shirin, chunki ular quyosh nurida pishib yetiladi. Ular vitaminlarga boy. O'lkamizda olma, nok, o'rik, olcha, gilos, shaftoli, olxo'ri, uzum, anor, xurmo va boshga mevalar yetishtiriladi. Apelsin, mandarin, limon, kivi, banan, mango va ananas tropik mevalar hisoblanadi. Mevalardan turli sharbat, murabbo va salatlar tayyorlanadi.



Siz qanday mevani yoqtirasiz?

Matndagi tinish belgilariga ahamiyat bering. Darak gap, so'roq gap, his-hayajon gaplarni toping. Uyushiq bo'lakli gaplar nechta? Qaysi so'zlar uyushib kelgan? Izohlab bering.

102-mashq.



Har bir gapning chegarasini tinish belgilar yordamida belgilang. O'qiganingizda gapning boshlanishi va oxirini ohang yordamida ajrating.

Shokirjonlarning bog'ida bir tup yong'oq o'sadi yong'oqning tanasiga quloch yetmaydi har yili talay hosil beradi yong'oq pishdi Shokirjonning o'rtoqlari hasharga kelishdi otasi Ro'zimat aka yong'oq qoqdi bolalar yong'oqlarni terishdi Ro'zimat aka bolalardan mamnun bo'lib tashakkur aytdi.

103-mashq.



Siz ham sinfingizda ibratli ishlar qilasizmi?
Sinfingizda qanday gullar o'sadi?
Ularni qanday parvarish qilyapsiz?

Quyidagi tinish belgilarini
qatnashtirib, matn tuzing.



104-mashq.



Tasavvur qiling, sayyora kashf etdingiz. Uni ganday nomlagan bo'lar edingiz? Sayyorangiz haqidagi ma'lumotlarni quyidagi jadvalda ifodalang.

Yangi sayyora kashf eting.

Nomi:	
Hayot uchun zarur:	
Rangi:	
Narsalar:	
Hajmi:	
Sayyorangizning rasmi:	
Ma'lumotlar:	
Insonlar va jonzorlar:	

Quyosh atrofida
necha sayyora bor?

105-mashq.



Berilgan matnni o'qing. Ko'z oldingizga nimalar keldi?

Oyga parvoz qilganingizda nimalar qilar edingiz? Fikringizni izohlang.



Koinotni ilk bor 1961-yil 12-aprelda Yuriy Gagarin zabt etdi. Kema Yer atrofini 108 daqiqa ichida aylanib chiqib, Yerga qaytdi. Insonni koinotga olib chiqqan birinchi kemaning nomi "Vostok-1" edi. Biroq inson kemada uchuvchi emas, yo'lovchi bo'lgan: uchish avtomatik tartibda o'tgan.

Boshqariladigan kemalarda maxsus tushiriladigan bo'lma bor, unda ekipaj yerga qaytadi. Ushbu bo'lmada boshqaruv tizimi va parashut mavjud. Uning usti juda mustahkam bo'lib, issiqlikdan himoyalovchi material bilan qoplangan.

Oy – bu insonlar qadam qo'yishga muvaffaq bo'lgan birinchi va yagona fazoviy jism. Oyga uchish insoniyatning qadimiy orzusi edi. Bunga olimlar uzoq vaqt tayyorgarlik ko'rishdi. Oldin Oy sathini suratga tushiradigan sayyoralararo avtomatik stansiyalarni uchirishgan. 1973-yilda Oyga sayyorada ishlash uchun yaratilgan maxsus mashina "Lunoxod-2" tushirildi. Oyga ilk qadam qo'ygan birinchi insonlar – Nil Armstrong va Edvin Oldrindir. Bu 1969-yil 20-iyulda sodir bo'ldi. To'rt kun ichida ular "Apollon-11" kemasida Oyga uchib bordilar. Kema Oyga yaqinlashib, uning yo'ldoshiga aylandi. Kemadan ikki astronomik Oy bo'lmasi ajraldi. Ular Oyga qo'nib, skafandrlarda Oy bo'lmasidan chiqishdi. Fazogirlar Oyda 2,5 soat bo'lib, tuproq namunalarini yig'dilar va Oyni suratga oldilar. Keyin esa Oy kabinasi fazogirlarni kosmik kemaga qaytarib olib bordi.

("Koinot haqidagi mening birinchi kitobim" ensiklopediyasi. – Toshkent: "DAVR NASHRIYOTI", 2014.)



106-mashq.

Burgutni cho'qishga haddi sig'adigan yagona qush bu – qarg'a. U burgutning yelkasiga qo'nib, bo'ynini cho'qiy boshlaydi. Ammo balandparvoz qush bunga ahamiyat bermaydi, qarg'a bilan kurashmaydi, kuchini bekorga sarflamaydi. U shunchaki qanotini keng yoyib, tepaga – osmon-u falakka parvoz qiladi. Burgut balandlagani sari qarg'a nafas olishga qiynalib, oxiri qulab tushadi.

Odam o'z maqsadi sari harakat qilayotganida uning bahslashishga yoki kimgadir biror nimani isbotlashga hojat yo'q. Oldinga qarab intiling. Yo'lda davom eting. Shunda hamma to'siqlar o'z-o'zidan qulay boshlaydi.

**Matndan qanday xulosa qildingiz?**

O'z maqsadingizga erishish uchun turli to'siqlar, muammolar uchrasa, qanday yo'l tutasiz?

107-mashq.

“Tabiiy fanlar” darsligidan yoki ensiklopediyalardan foydalanib, sayyoralar va koinot haqida ma'lumot topib, do'stlaringiz bilan o'rtoqlashing.

108-mashq.



Fe'llarni jadval asosida tahlil qiling.

Soʻz	Feʼl		Zamon			Saxs-son qoʻshimchalari								Qoʻshimchalar				
	b-li	b-siz	oʻ/z	h/z	k/z	Birlik				Koʻplik				-la	-lan	-sira	-illa (-ulla)	-lash
						I sh	II sh	III sh	I sh	II sh	III sh	III sh						
tuzil- di	+		+							+								
nom- landi																		
oʻrna- tadi																		

109-mashq.



“Bumerang” ta’limiy o’yini. Bir o’quvchiga so’z aytib, koptokni bering, o’quvchi esa shu so’zga fe’l yasovchi qo’shimchalardan mosini qo’yib, koptokni qaytaradi.

Namuna: iz-izla, toza-tozala, yaxshi-yaxshilan.

110-mashq.



Berilgan so'zlardan fe'llar hosil qiling va gap tuzing.

Namuna: ko'z – ko'zla; so'z – ... ; qars – ... ; qag' – ... , bosh – ... , miyov –

111-mashq.

1. Qaysi gapda faqat bo'lishsiz fe'llar qatnashgan?
 - A. Yaxshilikni bilmasang, borib yaxshilarga qo'shil.
 - B. Sayyora kelajakda shifokorlik kasbini egallamoqchi, shuning uchun u hozirda qunt bilan o'qimoqda.
 - D. Xom suvni ichma, sog'liqdan kechma.
 - E. Ustida yashil to'ni,
Yoz-u qish yechmas uni.
2. Qaysi javobda **-gan** qo'shimchasi to'g'ri qo'shiigan?
 - A. egkan B. yog'gan D. chiqqan E. tikgan
3. Qaysi javobdagi fe'lda o'tgan zamon qo'shimchasi noto'g'ri qo'liangan?
 - A. Bahor keldi.
 - B. Giloslar g'arq pishti.
 - D. Ali gilos daraxtiga chiqdi.
 - E. Shox uchlaridagi giloslar unga kattaroq, shirinroq tuyuldi.
4. Qaysi javobda fe'l hozirgi zamon shaklida berilgan?
 - A. aytmading D. ko'rgansan
 - B. sinamoqchiman E. tanlamoqdasan
5. **Gul** so'ziga o'zakdosh bo'lgan so'zlar qatorini toping.
 - A. gulli, gulsiz, guldon, gulla
 - B. gulchi, gulzor, ishchi
 - D. gulzor, hosildor

Mundarija

1-mavzu.	3-chorakda o'tilganlarni takrorlash	4
2-mavzu.	Kishilik olmoshlari	9
3-mavzu.	Kishilik olmoshlari. Mustahkamlash	12
4-mavzu.	Kishilik olmoshlarini kelishik qo'shimchalari bilan qo'llash	14
5-mavzu.	Ijodkorlik soati. Loyiha ishi	17
6-mavzu.	Kishilik olmoshlarini kelishik qo'shimchalari bilan qo'llash	20
7-mavzu.	Matndan kishilik olmoshlarini aniqlash. Bilimingizni mustahkamlang	23
8-mavzu.	Kishilik olmoshlarini gaplarda to'g'ri qo'llash	26
9-mavzu.	Fe'l so'z turkumi	34
10-mavzu.	Ijodkorlik soati. Loyiha ishi	37
11-mavzu.	Berilgan fe'llarni ma'nolariga ko'ra guruhlab yozish	40
12-mavzu.	Fe'llarning o'zi bog'langan so'z bilan qo'llanilishi	43
13-mavzu.	Bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar	46
14-mavzu.	Bo'lishli fe'lladan bo'lishsiz fe'llar hosil qilish	49
15-mavzu.	Matnda fe'llarni to'g'ri qo'llash	51
16-mavzu.	Bo'lishli va bo'lishsiz fe'llarni mustahkamlash	54
17-mavzu.	Fe'l yasovchi qo'shimchalar	56
18-mavzu.	Ijodkorlik soati. Loyiha ishi	59
19-mavzu.	Fe'l yasovchi qo'shimchalarning imlosi	62
20-mavzu.	Fe'l yasovchi qo'shimchalarning imlosi	65
21-mavzu.	Fe'llarning kelishik qo'shimchalari bilan bog'lanishi	68
22-mavzu.	Gap. Gapda tinish belgilarining qo'llanilishi	70
23-mavzu.	Fe'lning shaxs-son qo'shimchalari bilan tuslanishi	74
24-mavzu.	Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari	77
25-mavzu.	Ijodkorlik soati. Loyiha ishi	80
26-mavzu.	Fe'l so'z turkumi yuzasidan tahlil	84
27-mavzu.	Bilimingizni mustahkamlang!	85

Darslik holati haqida ma'lumot

Nº	O'quvchining F.I.Sh	O'quv yili	Darslik olingan vaqtdagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslik qaytarib berilgan vaqtdagi holati	Sinf rahbarining imzosi
1						
2						
3						
4						
5						
6						

**Darslikni olish va o'quv yili oxirida uni qaytarishda yuqoridagi jadval
sinf rahbari tomonidan quyidagi mezonlarga muvofiq to'ldiriladi**

Yangi	Darslikning holati a'lo darajada
Yaxshi	Muqovasi butun, kitobning asosiy qismidan uzilmagan. Barcha sahifalar mavjud, butun, yirtilmagan, yelimi ko'chmagan
Qoniqarli	Muqovasi ezilgan, shikastlangan, kitobning asosiy qismidan qisman ajralgan va foydalanuvchi tomonidan tiklangan. Qayta tiklash ishlari qoniqarli. Yirtilgan sahifalar yopishtirilgan, ba'zi sahifalari yirtilgan
Qoniqarsiz	Muqovasiga chizilgan, kitobning asosiy qismidan to'liq yoki qisman yirtilib, uzilgan, qoniqarli tiklangan. Sahifalari yirtilgan, ba'zi sahifalari yo'q, bo'yalgan, ifloslangan, tiklash mumkin emas

Baynazarova Dilnoza Djamaliddinovna
Toirova Muhabbat Ermatovna

Ona tili

4-sinf IV qism

Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik

“Novda Edutainment”

Toshkent – 2023

Muharrir
Badiiy muharrir
Musahhih
Rassomlar:

Kompyuterda sahifalovchi

*M.Nishonboyeva
A.Sobitov
X.Serobov
R.Ismailova, T.Daminov,
M.Sulaymonova. S.Mamedova
R.Mirakov*

Nashriyot litsenziyasi AI №158. 23.10.2023-yilda original-maketdan bosishga ruxsat etildi. Bichimi 70×100/16. Kegli 14 n/shponli.
“Arial” garniturası. Ofset bosma usulida bosildi.
Mashinada yengil bo'rlangan (Machine Finished Coated) 80 g/m² qog'oz.
Shartli b.t. 5,5. Hisob-nashriyot t. 0,8.
Adadi 608 859 nusxa. Buyurtma raqami 23-637.
“O'zbekiston” NMIUda chop etildi.

[@ELEKTRON_DARSLIKBOT](#) dan yuklab olindi.

